

OLIY TA'LIMDA SIFATNI TA'MINLASH VA UNI BAHOLASH

Mirzaeva Faroxat Odiljonovna

Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi davrda dunyo bo'yicha ta'lim sifati masalasining muhim ahamiyati, rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida sifatni ta'minlashning usullari va huquqiy asoslari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy, tendensiya, kadr, dastur, oliy ta'lim, sifat, nazorat, bilim, ko'nikma, malaka, raqobat.

Аннотация: В данной статье представлена информация о важности вопроса качества образования в мире в настоящее время, методах и правовых основах обеспечения качества в системе образования развитых стран.

Ключевые слова: современность, тенденция, кадры, программа, высшее образование, качество, контроль, знания, навыки, компетентность, конкуренция.

Abstract: This article provides information on the importance of the issue of the quality of education in the world at the present time, the methods and legal bases of quality assurance in the education system of developed countries.

Key words: modern, trend, personnel, program, higher education, quality, control, knowledge, skills, competence, competition.

Yangi O'zbekistonda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, uni jahondagi eng rivojlangan ta'lim tizimlari bilan raqobatbardosh qilish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev bu borada Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida alohida to'xtalib, "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir", deya ta'kidlaganlari mamlakatimizning kelajakdagi yo'lini belgilab beradi.

Hozirgi global dunyoda barcha sohalarda keng ko'lamdagi o'zgarishlar bo'lmoqda, jumladan ta'limda ham ko'plab yangi metodlar va atamalar kirib kelmoqda. Shu vaqtga qadar O'zbekistonda ta'limga oid yagona atamalar lug'ati mavjud emasligi, balki ta'limdagi ayrim sohalarning alohida lug'atlari mavjudligi ham ta'limda uzluksizlik tizimi bo'yicha yagona lug'atning mavjud emasligini ko'rsatadi. Shuningdek, xorijiy ekspertlar tomonidan ta'limdagi yangi va milliy atamalarni qo'llashda hamda tushunishda turli xil muammolarga sabab bo'layotgani ham sir emas.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startup, akselerator markazlari tashkil etiladi hamda ular tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq etuvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallari xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishi ta'minlandi.

Oliy ta'limdan ilmiy-texnik yutuqlar va innotvasiya sohasida yuqori darajali qo'shimcha qiymatni yaratish qobiliyati talab etilmoqda. Natijada oliy ta'lim sifatini iqtisodiy jihatdan tahlil etish, moliyaviy, iqtisodiy va boshqaruv muammolarini aniqlash, tashqi va ichki omillarning doimiy o'zgarishi sharoitida belgilangan maqsadlarga erisha olish qobiliyatini baholash zaruriyati namoyon bo'ldi.

Dunyo mamlakatlarining deyarli barchasida OTMlar sifat ko'rsatkichlarini boshqarishda asosan uning yakuniy mahsuloti hisoblanadigan kadrlar saviyasi, ularni jamiyat barqaror taraqqiyotini ta'minlash talablariga javob berishi bilan baholanadi. Ushbu masala doimo dolzarb bo'lib kelgan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Zero tayyorlanayotgan kadrlar, ularning jamiyat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissalarini u yoki bu davlatni rivojlanish darajasini, boshqa davlatlar o'rtasidagi reytingini va aholi turmush darajasini yaxshilanish tezligini belgilaydi.

OTMlarga qo'yilgan rasmiy talablar ulardagi ta'lim jarayoni sifati va yakuniy natijalar saviyasi bilan baholanadi. Bunda asosiy omillar bo'lib ta'lim oluvchining bilim darajasi, ta'lim beruvchining kompetensiyasi va ushbu jarayonni tashkil etishning moddiy-texnik, o'quv-uslubiy va me'yoriy-huquqiy bazalari hisoblanadi.

Hozirgi davrda dunyo bo'yicha ta'lim sifati masalasi o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda va uni ko'tarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aksariyat xorijiy davlatlarda OTMlarni davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiy universitetlarning ko'payishi va ta'lim ham iqtisodiy tizimda tovar kabi baholanishi, ya'ni unga buyurtmachi bo'lgan mijozlar tomonidan alohida talablarning qo'yilishi OTMlarni raqobatlashuvi va sifatli kadr tayyorlash kabi bozor talablarini kuchaytirmoqda.

Zamonaviy tendensiyalardan biri bu OTMlarni o'z mijozlarini o'zi topishi va ular bilan keng qamrovli hamkorlik qilishini taqozo etishidir. OTM bitiruvchilariga bo'lgan talabning oshishi shu OTMning yuqori ko'rsatkichlariga ega ekanligini va salohiyatini bildiradi. Demak, kadrlar saviyasi ularni mehnat bozorida raqobatbardoshligi hamda talablarni yuqori bo'lishiga buyurtmachi ham, OTM ham va albatta davlat ham manfaatdor bo'ladi. Bunday raqobat OTMning rivojlanishiga va moddiy-texnik bazasining mustahkamlanishiga va uning iqtisodiy axvolini yaxshilanishiga olib keladi.

Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida shunga mos holda Bolonya jarayoni va Lissabon strategiyasi ishlab chiqilgan. Islohotning ushbu ikki konsepsiyasi maqsadi oliy ta'lim sifati doimiy yaxshilashga, mehnat bozorida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga, ta'lim sifati va amaliy ta'lim xizmatini samarali birlashtirishga qaratilgan, umumiy fundamental tamoyillarga asoslangan, birlashgan Yevropa oliy ta'lim hamjamiyatini yaratishdan iborat.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Lissabon konvensiyasida asosan Yevropada ta'limning davri, kompetensiyasi, malakalariga qo'yilgan talablar, ta'lim sifati, uni umumiy talablarga javob berishi, nazorati, jarayonni amalga oshirish va natijalarini tan olish kabi masalalarda hududiy birlashish kelishilgan.

Xorijiy davlat OTMi diplomini tan olish, undagi malakaviy darajada ish berish – bu dunyodagi har qanday davlatning ta'lim tizimi sifatini ta'minlashni amalga oshirishda eng ko'p uchraydigan qonuniy muammolardan biridir.

Diplomni tan olishning o'ziga xosligi va murakkabligi har bir davlatning o'z ta'lim tizimi va o'rnatilgan sifat nazorati standartlariga bog'liq ekanligidan kelib chiqadi. Ilmiy darajalar ham turlicha nomlanadi, masalan, Avstriyaning ilmiy darajasi - Doktorat, ispaniyada - Doctor, Fransiyada (2005 yildan boshlab) - L.M.D., ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlarda - Ph.D, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida esa - fan nomzodi deb nomlanadi.

Akademik tan olish milliy ilmiy daraja va unvonning dunyo hamjamiyatiga tushunarsiz bo'lgan holatida olimning mavqeini chet elda tiklash va tan olishi uchun ham hizmat qilishi mumkin. Akademik tan olishning vositalaridan biri Bolonya diplom ilovasi (Diploma supplement) bilan bog'liq.

Hozirgi kunda deyarli barcha Yevropa davlatlarida mos holda OTTda sifatni ta'minlash va nazorat qilishning rasmiy ta'sis etilgan maxsus tizimlari – agentliklari mavjud. Lekin ushbu OTMlarda sifatni ta'minlash va akkreditatsiyalash agentliklarining faoliyatida o'ziga xos o'xshashliklar va farqlar borligini ko'rsatib o'tish kerak. Bu farqlar sifatni boshqarish, baholash uslublari va vositalari, etalon va kriteriyalar, standartlardan foydalanish va

boshqalarda bo'lishiga qaramay, asosiy tendensiya dasturlarni baholash, ularni akkreditatsiyasi va institutsional tekshiruvlarda sifatni ta'minlashning ichki va tashqi standartlarining mavjudligi bo'lib qolmoqda.

Oliy ta'limda sifatni ta'minlash va uni baholash kadrlar tayyorlash jarayonini eng muhim qismi bo'lib, ushbu sohada hamkorlik kutilgan maqsadga muvofiq bo'lgan natijalarni beradi. Ushbu qismda OTTda umumiy jarayon – sifatni ta'minlash, uning nazorati, baholashning ichki va tashqi turlari ko'rib chiqiladi.

OTMda sifatni ta'minlash standartlarining o'z tamoyillari va amalga oshirish tartibi mavjudki, uni amalga oshirishga mas'ul bo'lgan tashkilotlar salohiyati buni ta'minlashni kafolatlaydi. Buning uchun sifatni ta'minlash va uning nazoratini takomillashtirish strategiyasi ishlab chiqilishi kerak. Sifatni nazorat qilish va baholashda talabalar ishtirokini ta'minlash bugungi kundagi eng ustuvor va dolzarb richaglardan biri bo'lib qolmoqda. Manfaatdor tomon sifatida buyurtmachilar vakillari, bo'lajak kadr sifatida talabalarining ta'lim jarayoni sifatni nazorati va baholashidagi ishtiroki ta'lim tizimi nazorati va baholanishini to'g'ri va samarali amalga oshirish imkoniyatini beradi. Demak, sifat monitoringi, ma'lumotlar to'planishi va tahlili hamda jarayonni to'g'ri tashkil qilish, uni boshqarish va yaxshilash bo'yicha amaliy tavsiyalar berish imkonini yaratadi. Jarayon monitoringi va tahlil natijalarining shaffofligini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega.

Sifatni ta'minlash, baholash va nazorat qilishdagi asosiy zamonaviy hujjat bu standartlar hisoblanadi. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Standart Organization - ISO) ta'rifiga ko'ra - standartlashtirish shunday jarayonki, ma'lum sohada tartiblashtirish maqsadida qoida va talablarni o'rnatish, umumiy maksimal iqtisodiy natijaga erishishda xavfsizlik va funksional shartlarga rioya qilishdir.

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti 1946 yilda BMTning standartlarni muvofiqlashtirish qo'mitasi qarori bilan tashkil etilgan nodavlat tashkilot bo'lib, ushbu tashkilot o'z faoliyatini 1947 yildan boshlagan. Hozirda 33 ta davlat bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi va uning Nizomiga ko'ra tashkilotning asosiy maqsadi "Jahon miqyosida standartlashtirishga yordam berish" hisoblanadi.

OTMlarni xalqaro darajada sertifikatsiyalash, uning mohiyati va jarayon xususiyatlari talablari va natijalari ISO rasmiy hujjatlari va bu haqidagi maqolalarda to'la tahlil qilingan. Sifatni ta'minlashning tashqi nazorati va monitoringi mustaqil, tan olingan va ixtisoslashgan agentliklar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday agentliklar e'tiborini sifatni ta'minlashning ichki nazorati, monitoringi natijalariga qaratish va jarayon samaradorligini ta'minlashning boshqa omillarini tekshirish, ularni bajarilish darajasini baholashga qaratadilar. Masalan, Yevropa Ittifoqi hududida davlatlar tomonidan tan olingan kompetentli agentliklar mavjud bo'lib, ularga ta'lim tizimini, shu qatori OTMda jarayon sifatini nazorat qilish, baholash va tegishli tavsiyalar berish huquqi beriladi. Ular ma'lum davr oralig'ida qonuniy asosda ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifatining tashqi nazorati va baholashini amalga oshiradilar. Natijalar hisobot ko'rinishida nazorat natijalari, ularni tahlili va tegishli tavsiyalar ko'rinishida chop etiladi. Ushbu xulosalarda OTM faoliyatiga baho berilib, uni kompetensiyasi va salohiyati ommaviy axborot vositalarida chop etiladi. Bunday vositalar maxsus byulletenlar va jurnallar bo'lishi mumkin [5].

OTMlarda sifat nazorati va uni ta'minlashda xalqaro hamkorlik qilish kutilgan natijalarni beradi. Shu sababli Yevropa Ittifoqi hududidagi agentliklar o'z faoliyatini xalqaro ekspertlar va mustaqil maxsus agentliklar bilan birgalikda olib boradilar. Shunday tashkilotlardan biri Yevropa hududida oliy ta'lim tashkiloti (European Higher Education Area - EHEA) bo'lib, uning rasmiy talablarida barcha davlatlarning standartlari, o'ziga xos rivojlanish darajasi va xususiyatlari hisobga olingan.

Yuqorida qayd etilgan xorijiy OTMlar rasmiy hujjatlarini O'zbekiston OTMlariga tadbiq etish mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy tomonlari o'rganilgan. Bu umumlashgan hujjatdagi

ko'rsatkichlar (descriptions) va umumlashtirilgan talablar (general requirements) asosida OTMlar faoliyati ta'lim sifatini baholaydi. Shuningdek ulardagi ijobiy tomonlari olinib, O'zbekiston OTMlarida ta'lim jarayoni sifat nazoratini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» 2020 yil 23-sentabr.
2. «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» PF-5847-son Farmoni. 2019 yil 8-oktabr.
3. European Students' Union (2020). Bologna with Student Eyes 2020. ISBN 9789491256066. Retrieved from:
4. <https://www.esu-online.org/wp-content/uploads/2021/03/0037-Bologna-Publication-2021-WEB3.pdf>
5. Gover, A., Loukkola, T. and Peterbauer, H., 2019. Student-centred learning: approaches to quality assurance. [online] Eua.eu. Available at: <https://www.eua.eu/resources/publications/884:the-quality-assurance-of-student-centredlearning-approaches-to-quality-assurance.html> [Accessed 24 January 2022].
6. Karimov A.A., Peregudov L.V. Osnovi sistemi monitoringa i upravleniya kachestvom visshego obrazovaniya. – T.: 2003. Str. 46.; Saidov M. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – T.: 2002. B. 51.